
HAMIDAXON AYA TO'XTASINOVA XONADONIDA BAYRAM

Avval xabar berib o'tganimizdek, bugun yurt fidoyisi, butun umrini yurtdoshlari o'y-tashvishi bilan bog'lagan mehribon Hamida aya To'xtasinova qutlug' 80 yoshni qarshi olmoqda. Ana shunday farishtali-sarishtali, nabiralarning shodon qiyqirig'i ostida umrguzaronlik qilayotgan muborak onaxon xonadonida bugun haqiqiy bayram hukmronlik qildi. Ushbu onaxonni bugungi yubiley bilan tabriklash tuman hokimi S. Soliev, tuman hokimi o'rinbosari M. Bekmirzaeva, tuman mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i o'rinbsari T. Abdurahmonov hamda Hamida aya To'xtasinovaning yaqinlari to'planishdi. - Yuzidagi ajinlar hayotining quvonch va tashvishlaridan dalolat. Onaxonning hayot tarzi hamma uchun hali yozilmagan va o'qilmagan ibratli kitobdir, dedi tuman hokimi onaxonni tabriklar ekan. Eslatib o'tamiz, Hamida To'xtasinova yaqinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mehnat faxriysi" ko'krak nishonini ta'asis etish to'g'risida"gi 2017 yil 14 iyuldagi Qaroriga muvofiq, mamlakatimizning iqtisodiyot, ishlab chiqarish, ilm-fan, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, yurisprudentsiya va boshqa sohalarida ko'p yillar davomida halol va samarali mehnat qilgan pensiya yoshidagi bir guruh yurtdoshlarimiz qatori 1-darajali "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

2022-06-02 15:30:26